

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar	207
U.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'roqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253
	SIYOSAT
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museyibzada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285
	TARIH
I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

ABU HAFS UMAR SUHRAVARDIY INSON NAFSINI ANGLASHGA DOIR FALSAFIY QARASHLARINING TAHLILI

АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБУ ХАФСА УМАР СУХРАВАРДИ НА ПОЗНОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО “НАФСА”

ANALYSIS OF THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF ABU HAFS UMAR SUHRAVARDI ON THE UNDERSTANDING OF THE HUMAN NAFS

Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich¹

¹**Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich**

– Buxoro davlat pedagogika institute, Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tasavvuf ta'limoti va Sharq falsafasining yirik vakillaridan biri, “Suhravardiylik” tariqatining asoschisi Abu Hafs Umar Suhravardiyning inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlari “Avorif ul-maorif” (Ma'rifat tuhfalari) asari asosida tahlil qilingan. Shuningdek, asarda mutasavvifning nafsning tavsiflanishi, nafsni tarbiyalash to'g'risidagi g'oyalarning yosh avlodni tarbiyalashdagi roli yoritilgan.

Аннотация

В этой статье рассматриваются философские взгляды Абу Хафса Умара Сухраварди, одного из крупнейших представителей суфийского учения и восточной философии, основателя тариката “Сухраварди” на познание человеческого нафса анализируется на основе работы “Аворифуль-маориф” (дары просвещения). Также в работе освещена роль идей суфия об описании нафса, о воспитании нафса в воспитании подрастающего поколения.*

Abstract

In this article, the philosophical views of Abu Hafs Umar Suhrawardi, one of the major representatives of the teachings of mysticism and Eastern philosophy, the founder of the Ssuhrawardiyya tariqat, on the understanding of the human ego it was analyzed on the basis of the work “Avoriful-maorif” (enlightenment gifts). Also, the work covers the role of the sufis scholar's ideas about the description of nafs, about the education of nafs in the upbringing of the younger generation.

Kalit so'z va iboralar: Suhravard, “Avorifal-maorif”, Ruh masalasi, insoniy nafs, naql va aql, istidlol, tavhid ahli, izzat nuri, oliyruh, hayvoniy ruh, tasavvuf.

Ключевые слова: Сухравард, “Авориф Аль-маориф”, вопрос души, человеческая похоть, нарратив и разум, истидлал, люди таухида, свет почета, высший дух, животный дух, суфизм.

Key words: Suhravardi, “Avorif al-Maorif”, the question of the Soul, the human soul, the narration and the mind, istidlol, the people of monotheism, the light of glory, the Supreme spirit, the animal spirit, sufism.

KIRISH

Sharq ma'naviy merosida o'ziga xos o'rin egallagan Shihobiddin Umar Suhravardiy 1145 yilda Eronning “Suhravard” qishlog'ida dunyoga kelgan. Shihobiddin Abú Hafs Umar ibn Abdullox as-Suxravardiyning asli ismi Umar, otasining ismi Muhammad bo'lgan. U Abu Hafs, Abu Abdulloh nomlari bilan ham mashhur bo'lgan. Shuningdek, “Shihobiddin” yoki “Shayxul islom”, “Shayxul orifin” nomlari bilan ham u kishiga nisbat beriladi. Suxravardiy o'zining “Avorif ul-maorif” (Ma'rifat tuhfalari) asarining “Inson nafsini anglash va so'fiylarning mukoshafalari” 56 - bobida inson nafsini anglash masalasiga katta e'tibor qaratgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda o'zlikni anglash baxtiga erishganimizga shukronalar ila tabarruk zaminimizda yetishib chiqqan ulug' avliyolar, olim-u fuzalolarning hayoti, faoliyati va ijodlarini o'rganishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari falsafiy, psixologik-pedagogik va metodik yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda. O'zbek olimlaridan O.Fayzullaev, A.Choriev, G. Navro'zova, E.Zoirov, G.Yunusova, O.Sharipova, X.Raxmatovalar Tasavvuf falsafasi unda komil inson tarbiyasi, bugungi kunda jamiyatimizda barkamol avlodni voyaga etkazish, ilmi ma'rifali qilish, buning uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlar olib borishgan[10;8;5;11].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligida Dj.S.Trimengem, A.D.Knish, A.Muxammadxodjaevlar inson uning mohiyati, barkamollik sari intilishi, nafsni jilovlash o'zlikni anglash masalalari bo'yicha

FALSAFA

bugungi kun uchun ahamiyatli bo'lgan masalalarni tadqiq etishgan. So'fiylar hayot yo'li va ular qoldirgan ilmiy merosni ilmiy yo'llarni o'rganishning samarali metodlarini ishlab chiqishgan [7;3;4].

NATIJALAR

Tasavvuf barkamol inson deganda avvalo nafsini anglagan insonni nazarda tutadi. Shuning uchun nafs bilan bog'liq mutafakkirlarning qarashlarini o'rganish ahamiyatlidir. Nafs tushunchasi barcha inson haqidagi ta'limotlarda o'rganilgan. Nafs tasavvuf falsafasining ham asosiy kategoriyalaridan hisoblanadi.

Nafs tushunchasi fiziologiya, diyetologiya, axloq – odob, ijtimoiy munosabatlar, umuman me'yor — tarozi muammolaridan biridir. Nafs muammosi bilan shug'ullanadigan ilmlardan biri – tasavvufdir. Tasavvufning maqsadi insonni komillik pog'onalariga eltishdir. Tasavvuf inson tarbiyasini nafs tarbiyasidan boshlaydi va uni atroflicha chuqur tadqiq etadi. Inson kamoloti uchun eng katta dushman nafs ekanligini tushuntiradi. Mazkur nuqtai nazardan Shihobiddin Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir qarashlari barkamol avlodni nafsni tiyish, xudbinlikka qarshi kurash yo'lida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nafs deyilganda gap jamiyat haqida emas, avvalo ayrim bir shaxs haqida ketadi. "Goho", "Men", "O'zim", "Mening o'zim" – so'zining har xil ishlatilishidir[9]. Falsafa fanlari doktori T.Oqmurudov bu tushunchani quyidagicha izohlaydilar: tasavvufda xudbinlik "o'zlik" degan istiloh bilan ham aytiladi. O'zlik esa jism va nafsdan tashkil topadi. Insondagi jamiki xudbinliklar, illatlar, razolatlar ana shu jism ehtiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi. Komil inson bo'lish uchun ana shu jism bilan nafsni yengish kerak. Inson o'zlikdan kechish orqali o'zligini topadi. Jism va nafs yengilgach, insonda hech bir illat qolmaydi, u butunlay ruhoniyyatga aylanadi. Bu esa Allohga yetar darajadagi bir pok ruh. Ana shunday pokiza ruhda Alloh o'z jamolini ko'rsatadi. Chunki dunyoda eng oliy poklik, eng oliy go'zallik Allohning o'zida. Inson hamisha ana shu oliy poklik va oliy go'zallik sari intilishi shart va juda tabiiy[6]. Natijada nafsni yenga olish orqali yaratuvchanlik, bunyodkorlik fazilatlarini rivojlanadi, aniqrog'i tasavvufiy g'oyalar ana shunday sifatlarni rivojlantirish uchun ruhlantiruvchi, ilhomlantiruvchi, da'vat etuvchi vosita rolini bajaradi.

MUHOKAMA

Shihobiddin Umar Suhravardiy "*Avorif ul-ma'orif*" (*Ma'rifat tuhfalari*) asarida Abu Tolib Makkiyning nafs haqidagi fikrlaridan iqtibos keltiradi: "Ruhlar jasadlardagi bir ayniyatdir. Nafslar ham xuddi shunday. Ikkovi ham jasadga harakat qiladi. Ruh yaxshilikka harakat qiladi va bu intilishidan qalbgga nur zohir bo'ladi. Buni malak ko'radi va yaxshilikka undaydi. Nafs ham harakat qiladi va harakatidan zulmat zohir bo'ladi. Buni shayton ko'radi va ig'vo qilib yomonlikka boshlaydi"[1].

Mutasavvif odamni tana va jondan iborat deb hisoblagan, ularni ayniyat deb talqin etgan. Ruh doimo yaxshilikka insonni undashi, nafsning nojoiz harakati zulmatga undashini ta'kidlaydi.

Shixobiddin Suhravardiyning "*Avorif ul- ma'orif*" asarida hikoya qilishicha, u Isfahonda bo'lgan chog'larida bo'lgan bir guruh kishilar Ahmad G'azzoliyning huzuriga kelib, undan xirqa so'rashibdi. Shayx ularning orzularini eshitib." Falonchining yoniga boringiz. U sizga xirqaning nimaligini anglatsin. Keyin kelinglar men sizga xirqa kiydirurman". Suhravardiyning huzuriga jo'natibdi, ularni o'sha kimsalar mening huzurimga kelishdi, — deydi Suhravardiy, men xirqaning haqiqatlari, xirqa sohibining vazifalari va bularni qanday bajarish qoidalari va odobini yetarli darajada tushuntirdim. Bularni eshitib ul kishilar xirqa talabi va kiyishdan voz kechishdi"[2].

Tasavvufdan murod xirqa kiyish emas, balki nafsni yengish, ko'ngilni poklash, sabr va bardosh ila fikr, ma'rifat, ruhoniyyat yuksakliklarni egallashdir. Bu esa kamdan-kam kishilarga nasib bo'lgan qismat erur, deb hisoblagan mutasavvif.

Mutasavvifning fikricha, "Ruh javhar xilqatdir. Xilqatlar ichida eng latifi udir. Javharlarning eng tozasi va eng nurlisi ham udir. U orqali g'oyib narsalar ko'rinadi va haqiqat ahliga u orqali kashflar bo'ladi. Agar ruh tarbiya qilinmasa, u odob qanotlari kirlanadi. U nur va zulmat orasida qoladi. Bunday ruhning chiqishi va tanadan sug'urib olinishi qiyin bo'ladi".

Deydilarki: "Ruhlar uchun dunyo va oxirat barobardir". Bu g'oyalari bilan agar inson o'z nafsini tarbiyalamas, nur va zulmat dunyosi o'rtasida qoladi va tozalangan, nafsidan ozod bo'lgan ruhni javhargga qiyos etadi. Qaysikim, javhar eng qimmatli, bebaho narsa, buzilmaydigan, qadri baland tosh bo'lganidek, nafs tarbiyalangan inson ham javhardek qimmatlidir.

Shixobiddin Suhravardiyning "*Avorif ul- ma'orif*" asarida olimlar: "Alloh ta'olo ilmni ruhga yaqin qildi. U o'zining latifligiga ko'ra ilm orqali o'sadi, bu xuddi tana ovqat bilan o'sganga

o'xshaydi. Bu esa Allohning ilmidir, xalqning ilmi esa oz bo'lib buni anglashga yetmaydi, dedilar", deb iqtibos keltiradi[1]. Nafsni tarbiyalashda ilmning o'rnini alohida qayd etgan holda mutasavvif, xuddi inson tanasi ovqat bilan quvvatli ekanidek, ruhning tarbiyasi ilmga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Aksar islom mutakallimlari nazdida insoniylik bilan tiriklik tushunchasi xilqatdagi ikkita arazdir. O'limdan keyin ruh o'z ayniyatida hayot bo'ladi. Qiyomatda ruh badanga qaytarilgandan keyin badan hayotga qaytadi, deydi Shixobiddin Suhravardiy.

Suhravardiy "Avarif al-maorif" asarida Ibrohim Xavosning Xizr bilan uchrashganliklari haqidagi hikoyani misol keltiradi: "Men o'n bir kun cho'l-u xiyobonlarda kezib yurgan edim, och qolganim uchun yeydigan narsa qidiriyotganimda o'simlik topdim. Shu onda Xizrning menga tomon kelayotganligini sezdim va ko'rdim. Men u bilan suhbatlashishni istamadim va u mendan uzoqlasha boshladi".

Undan so'rabdilar: "Nega sen muqaddas Xizr bilan hamsuhbat bo'lishni istamading?" U javob beribdi: "Men nafsim g'olib chiqib, undan biror yordam so'rasam, Ollloh mening tavbalarimni qabul qilmasligi mumkin deb qo'rqdim".

– "Ollhohing eng sadoqatli do'stlari yolg'iz, qarovsiz va g'arib-u musofirlaridir", deb ta'kidlaydi mutasavvif. Odamlar payg'ambarimizdan "g'ariblar kimlar?" deb so'raganlarida, "ular Islomga sadoqat evaziga odamlar bilan muloqotda bo'lishdan qochadilar. Ular qiyomat kunida tanlanganlardan bo'ladilar".

Suhravardiy shariat qoidalariga ko'ra mavjud qator ko'rsatmalarga ham to'xtalib o'tgan. Qaysikim, solik sayr vaqtida bularga rioya qilish lozim. Mazkur amallarga a) suv bo'lmaganda tuproq yoki qum bilan tahorat (tayammum) qilmoq; b) ayrim kasalliklar davrida sig'inishni qisqartirish (kasr) va qo'shish (jam) holatlari; d) sufiy ahli hududlaridan o'tayotganda duolar o'qiydi, tozalikka rioya qiladi.

Mutasavvif bu ko'rsatmalar shariatdan tariqatga o'tishda asos ekanligini ta'kidlaydi.

Abu Xafs Suxvardiy tinglash masalasiga ham e'tibor qaratgan. Muqaddas yozuvlarni tinglash madaniyatining foydali asoslari shundaki, solik haqiqat nurlari ostida (fanoiy nafs) nafsdan forig' bo'lish yo'lini tutadi. Inson haqiqatni anglab, tavba qilgani sari qalblari noqisliklardan xalos bo'la boshlaydi, deb ta'kidlaydi mutasavvif. Kimki dil istaklaridan qutula olmasa u tinglash madaniyatidan mosuvo va g'aflatdadir deb hisoblaydi.

Suhravardiya ta'limotiga ko'ra, fano Ollhoga yaqinlashmoqning oliy darajasi bo'lib, bunda inson butkul ilohiyotga singib ketadi. Fanoga erishgan shaxs Ollloh oldida o'zini his etadi, vahdat dengizida bo'ladi va yaratuvchidan o'zga narsani ko'rmaydi. O'zining nojo'ya harakatlaridan, nafsidan xalos bo'lgan inson doimiy baqoga erishadi.

Insoniy ruh oliy samoviy bo'lib, u amr olamidandir. Hayvoniy bashariy ruh esa xalq olamidandir. Hayvoniy bashariy ruh oliy samoviy ruhning joylashadigan joyidir. Hayvoniy ruh latif jism bo'lib, qalbdan keladigan his va harakat quvvatini tashiydi. Ya'ni, qalb deganda go'shtli muzg'a nazarda tutilib, u jasadning chap tomonida o'rnashadi va ruh ter chiqadigan terining teshiklari va ustlariga yoyiladi. Bu barcha tirik jonlarda uchraydigan ruh bo'lib, hislar undan fayzlanadi. Uni Alloh taolo qoyim qilgan bo'lib, quvvatini asosan, ovqatdan oladi. Uning mijozining mo'tadilligini tib ilmi tasarruf qiladi. Insoniy oliy ruh hayvoniy ruhdan farqlanadi. U boshqa sifatni o'zlashtiradi va nutq hamda ilhomga ega jon bo'ladi.

Alloh taolo aytadi: "Jonga va uni raso qilib yaratgan, unga fisq-fujurini ham, taqvosini ham ilhom qilib o'rgatib qo'ygan Zotga qasamki", (Shams: 8-oyat.). "Raso qilib yaratgan" degani bu inson ruhining hayvoniy ruhdan uzilganini anglatadi. Insoniy ruhning borlig'i Alloh taolo tomonidan alohida oliy borliq qilib yaratilgan.

Mutasavvif bu masalani "Butun koinot uchun kimki nafsini tanisa, Robbiysini taniydi", hadisiga muvofiq holda tushunishi lozimligini uqtiradi. Shu sabab inson o'z botiniga nazar sola olsa, unda sof borliqni idrok qila oldi. O'zining aslini anglay oladi[1].

Suhravardiy o'zi ham nafsi tarbiyalangan, dunyo ne'matlaridan ko'nglini uzgan odam edi, juda insonparvarligi bilan mashhur bo'lib, butun umri davomida yig'ilgan mablag', berilgan hadya va sovg'alarni ehtiyojmandlar hamda darveshlarga tarqatib bergan. Shu sabab vafotidan keyin uning uyidan hatto kafanlik mato ham topilmagan degan ma'lumotlar keltiriladi. Mutasavvif inson borlig'ini tana va ruhdan iboratligini ko'rsatib, ularni o'zaro mutanosiblikda qaragan, inson tanasi yaratilish hijobi, ya'ni Haq bilan insonni ajratib turgan to'siq, parda deb qaraydi. Insonning qandaydir vaqtda yaratilgan fardiy-individual borliq sifatida baholaydi.

XULOSA

1. Shixobiddin Suhravardiy tomonidan aytilgan nafs va uning me'ori, nafsni jilovlash to'g'risida fikrlar bugungi kunda barkamol avlodni moddiy, nafsoniy-ma'naviy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

2. Shixobiddin Suhravardiyning hayot yo'llari qanoat va mashaqqat bilan yashash namunasidir.

3. Shixobiddin Suhravardiy o'z asarlarida nafsning foydali va me'oridan ortiqcha nafs zararli ekanligini tahlil etganlar.

4. Shixobiddin Suhravardiy insonning tanazzuliga sabab bo'ladigan axloqiy illatlarga — nafsga berilish, riyo, ta'ma, g'azab, nafrat, xalqdan yiroq bo'lish, g'aflat, dangasalikni kiritganlar. Mutasavvif axloqiy kamolot uchun illatlardan qutulish va o'zidagi ijobiy xislatlarning rivojiga intilish zarurligini ta'kidlagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- عوارف المعارف شهاب الدين سهروردی. N Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi, Hujjatlar fondi 21125/11. 443-бет.
2. Иброҳим Ҳаққул. Тасаввуф сабоқлари. Бухоро 2000. 63 бет.
3. Кныш А.Д. Тасаввуф // Ислам. Энциклопедический словарь.-М.: Наука, 1991. – С. 225-231.
4. Мухаммадходжаев А. Идеология нақшбандизма. -Душанбе: Дониш, 1991, - 232 с.
5. Наврӯзова Г., Зоиров Э., Юнусова Г. Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи.- Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 56 б.
6. Оқмуродов.Т. Дин ва ҳурфикрлилик тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1995. 148-бет.
7. Трименгэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989. -328 с.
8. Чориев А. Инсон фалсафаси. –Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2009.- 416 б.
9. Файзуллаев. О. Нафс балоси. Ўзбекистон овози газетаси, 2003 йил, 9 сентябрь, 2-бет.
10. Файзуллаев О. Нафс, жон ва руҳ. Қуръон, тасаввуф ва фандаги талқинлари / Масъул муҳаррир: Н.Комилов. – Тошкент: Академия, 2005. – 56 б.
11. Шарипова О. Хожа Абдулхолиқ тасаввуфий таълимотида ахлоқий қадриятлар: Фалсафа фанлари номзоди...дисс. автореф. –Тошкент, 2002. – 23 б.